

2021

5-APREL

# IJODKOR O'QITUVCHI

## RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI









www.Bestpublishing.org

# «BEST PUBLICATION»

*Ilm-ma'rifat markazi ©*

## IJODKOR O'QITUVCHI
## ILMIY-USLUBIY JURNAL

# MATERIALLARI TO'PLAMI

**5-APREL, 2021-YIL**

**5-SON**

| | |
|---|---|
| MAKTABGACHA TA"LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI | |
| Atamuratova Feruza Komiljanovna | 105 |
| BIOLOGIYA DARSLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI | |
| Boltayeva Zuhra Sadirdinovna | 107 |
| BOSHLANG"ICH SINF O"QUVCHILARINING TA"LIM JARAYONIGA QIZIQISHLARNI OSHIRISH USULLARI | |
| Akram Pirimov | 111 |
| Husenova Muhtaram Husniddin qizi | |
| BOSHLANG„ICH TA"LIM 4-SINF "MATEMATIKA" DARSLIGINI O„RGANISH ASOSIDAGI BA"ZI TAKLIFLAR | |
| Xasanova Munira Pulatovna, Ibragimova Leylo Shonazarovna | 115 |
| BOSHLANG"ICH TA"LIM TIZIMIDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI | |
| Musayeva Amina Karamatovna | 118 |
| INNOVATSION TA"LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IQTISODIYOT ASOSLARI FANINI O"QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI | |
| Fayzullayeva Gavhar | 123 |
| Bahronova Sadoqat | |
| Pirimov Akram | |
| BOSHLANG"ICH SINF O"QUVCHILARINI MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA DARSLIKLARNING O"RNI | |
| Oripova Sobira Axadovna | 128 |
| MAKTABGACHA TA"LIM MUASSASALARIDA TURLI YOSH GURUHLARIDA QURISH-YASASHGA O„RGATISH METODLARI, TURLARI | |
| Sarbaraliyeva Nasiba Boltaboyevna | 140 |
| Usmonova Nigora Mahammatsodiqovna | |
| BOSHLANG"ICH SINF O"QUVCHILARINING YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH | |
| Qurbonova Mohidil Ikromovna | 145 |
| BOSHLANG"ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA NOAN"ANAVIY TA"LIMNING SAMARADORLIGI | |
| Rixsiboyev Oybek | 149 |
| MAKTABGACHA TA"LIM MUASSASALARIDA BERILADIGAN MUSIQA TA"LIMI VA TARBIYASINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK ASOSLARI. | |
| Hamidova Nargiza Radjabovn | 152 |
| O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARDAN TURLI TANLOV,SINOV VA BELLASHUVLARNI AHAMIYATI | |
| Sayfullaeva Malikakhon Abdusalom qizi | 156 |
| THE STORY OF UTKIR HOSHIMOV IN THE WORK ON THE AFFAIRS OF THE WORLD ON WHITE MOONLIT NIGHTS | |
| Tolyakova Inobat Yuldashevna | 158 |
| BOSHLANG„ICH SINFLARDA MATEMATIKA O„QITISHNING INDUKSIYA, DEDUKSIYA, ANALOGIYA METODLARI | |
| Xaitova Dildora Omanovna | 163 |
| O"QUVCHILARDA INTERFAOL USULLAR ASOSIDA ERKIN FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA | |
| Xayrullayeva Maftuna O'ktam qizi | 167 |
| OSIYO TA"LIM MODELI (SINGAPUR MISOLIDA) | |
| Xolmurotova Gulbaxor Ismoilovna | 174 |
| BOSHLANG"ICH SINFDA O"QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. | |
| Yuldasheva Manzura Mahmudovna, Ibrohimova Nigina Sharopovna | 177 |
| USING GAMES TO TEACH CHILDREN | |
| Biytemirova Dilfuza Abdiraimovna | 183 |
| O"SMIRLIK DAVRI PSIXOLOGIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI. OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSI | |
| Ruzmetova Nodira Kurbanbayevna | 188 |
| BOSHLANG„ICH SINF MATEMATIKA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH | |
| Шоира Ибрагимова Қосимовна | 196 |
| ЎҚИТУВЧИ МАҲОРАТИ ОРҚАЛИ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ КАТТА КУЧДИР. | |
| **SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT** | |
| *Akramov Dilmurod Nurmurodovich* | 199 |
| KELAJAKDAGI MAKTAB O"QITUVCHISI VA O"QUVCHILARNING NATYURMORT CHIZISH JARAYONIDA IJODIY VA BILIM FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH | |
| Ergasheva Gulhayo Faxriddin qizi | 204 |
| UMUMTA"LIM MAKTABLARINING CHIZMACHILIK DARSLARIDA QO"LLANILADIGAN METODLAR | |
| Rozzoqov Dilshod G"afurovish | 206 |
| JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING O'RNI. | |
| Islomov Eldor Yusupovich | 210 |
| MAKTAB TA"LIMIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI INTEGRALLASHTIRISH TEXNOLOGIYASIGA O'RGATISH | |

# MAKTAB TA'LIMIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI INTEGRALLASHTIRISH TEXNOLOGIYASIGA O'RGATISH

***Islomov Eldor Yusupovich*** *Buxoro davlat universiteti Jismoniy nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada zamonaviy didaktika, jismoniy tarbiya fanini o'rganishdan maqsad, integratsiya, jismoniy tarbiya fanini integratsiyalashning didaktik mohiyati, uning asosiy maqsadi, jismoniy tarbiya fani integratsiyalashgan holda o'rganishda sub'ektiv yangi bilimlar sintezi va ta'limda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy didaktika, jismoniy tarbiya fani, integratsiya, sub'ektiv yangi bilimlar, bilimlar sintezi.*

Mamlakatimiz kelajagi uchun sog`lom avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati juda katta. So`ngi yillarda jismoniy tarbiya va sport yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan o`sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma`naviy salomatligini shakllantirish, ularga sog`lom turmush tarziga intilish va sportga mehrini singdirishning g`oyat muhim sharti sifatida bolalarni ommaviy sportini rivojlantirish hamda maktab ta'limida jismoniy tarbiya darslarini integrallashtirish texnologiyasiga o'rgatishni ta`minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo`lib turibdi.

Zamonaviy didaktika jismoniy tarbiya va shunga o'xshash fanlarni integratsiyalashga bir qancha yondashuvlarni taklif qiladi, biroq hali bu jarayonning umume'tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko'pchilik pedagog olimlar ta'limdagi integratsion jarayonlarni o'rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko'radilar.

Bu holat integratsiyaning dastlab fundamental tarmoqlarda amalga oshib, keyinchalik pedagogika sohasiga tarqalganligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, jismoniy tarbiya fani boshqa fanlardan farq qiladi. Faqat bu farq ular mazmunida emas, balki bilimlarning berilish shakli, hajmi va bayon qilinish chuqurligida o'z aksini topadi.

Jismoniy tarbiya fanini o'rganishdan maqsad o'quvchini fandagi ob'ektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda sub'ektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. Shu sababli, jismoniy tarbiya integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi.

Bu ma'noda integratsiya – fanlarning differentsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin.

Jismoniy tarbiya fanini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tom ma'noda qaralganda, jismoniy tarbiya fani integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya fani integratsiyasining asosiy maqsadi sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – sub'ektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Jismoniy tarbiya fani integratsiyalashgan holda o'rganishda sub'ektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o'quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko'rsatmoqda. Biz, ta'lim tizimida tarixan tarkib topgan fanlarga bo'lib o'qitish tizimi saqlanib qolishining tarafdorimiz. Jismoniy tarbiya fani nisbatan mustaqil bo'lishi kerak. Chunki uning o'z uslubi, tushunchalar apparati, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va kontseptsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi.

Shu bilan birga, uni o'zaro bog'liqlikda o'rganish bilan bog'liq imkoniyatlar ro'yobga chiqarilishi lozim. Bunday imkoniyat jumladan fanlararo yondashuv asosida ta'minlanadi. Uni o'quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida ham, sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi sifatida ham qarash mumkin. Biz fanlararo yondashuvni umumta'lim hamda maxsus fanlarni integratsiyalashda pedagogika fani uchun eng optimal yo'nalish sifatida qaraymiz. Biz jismoniy tarbiya fanini integratsiyalash natijasi fanlar o'zaro bog'lanmagan holda o'rgatilganda shakllantirish mumkin bo'lmagan sub'ektiv yangi bilimlarning o'zlashtirilishi, — degan kontseptual g'oyaga tayanamiz.

Ta'limda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba'zida u bir qancha o'n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O'quv jarayonida o'qituvchi bir

yoki bir necha mashg'ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o'zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub'ektiv yangi bilimga "olib kelishi" kerak bo'ladi. Ya'ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o'tish bilan bog'liq bo'lib, u fanlararo aloqalarni o'rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, bilimlarning har qanday olib o'tilish holati sub'ektiv yangi bilimlar sinteziga olib kelmaydi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi (o'quv qo'llanma). – T., 2011 y
Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi (darslik). - T., 2005 y.
https://hozir.org
https://kopilkaurokov.ru